

2

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi

2013-yil 28-oktabr  
N:43 (66948)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## ORASTA, CHEVAR QIZLAR, VATANNI SEVAR QIZLAR



Bilimli, zukko va orasta!  
Millatimiz qizlariga azaldan xos bo'lgan, momolardan meros qolgan ushbu fazilatlariga sazovor bo'lishni bugun ham qay bir qiz istamaydi, deysiz?! Quvonarlisi, yurtimizda bunday ta'rifga munosib bo'lmoq uchun intilayotgan, hatto o'zaro bellashuvga shay lozar qizlarimiz talaygina. Marralar osha «Orasta qizlar»ning Respublika festivali ishtirokchisiga aylangan orastalarning iqtidor-u iste'dodlari haqida bilishni istasangiz, tabirdan tayyorlagan reportajimizni o'qing. Ularga havas qiling va ibrat oling, aziz qizlarjon!

### 2-bet

Oltin kuz mohir musavvirga o'xshaydi. Asta-sekinlik bilan borliqni tabiatdagi bor ranglar bilan bezaydi. Turfa ranglar saxiy quyosh nurlarida jilvalanib, ajib manzara hosil qiladi. Adabiyot, tasviriy san'at ixlosmandlari esa bu betakror go'zallikni qog'ozda, she'riy misralarda aks ettirishga Yangiyo'llik qizimiz Maftuna Ne'matova kuz manzaralaridan ilhomlanib, ushbu rasmlarni chizibdi. U haqda 4-betda o'qiydiz.



Olavuddin olgan suratlar





Oltin kuzning quyoshli bir kunida ajoyib bir tadbir bo'ldiki, hozir sizga bayon etsam, dilingiz yayraydi, qizlarjon! Muhtasham dargoh, katta sahnada yurtimizning o'n ikki viloyatidan jam bo'lgan orasta qizlar o'zaro bellashib, iqtidor-u iste'dodlarini namoyish etishdi. Orangizda bir necha yildan buyon respublikamizdagi o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarning o'quvchi-qizlari o'rtasida o'tkazilayotgan mazkur festival haqida eshitmagan, unda qatnashishni istamaydigan qizlar topilmasa kerak!

Ana shunday istakda o'zaro bellashgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tahsil olayotgan o'quvchi-qizlar ishtirokidagi bellashuvning Respublika bosqichida biz ham tomoshabin sifatida ishtirok etdik.

## ORASTA, CHEVAR QIZLAR, VATANNI SEVAR QIZLAR

(Reportaj)



Dastlab sahnaga mezbon qizlar – Toshkent shahri vakillari chiqib: «Orasta qizlarning tilida kalom, Do'st-u yoronlar, barchaga salom», deya mehmonlarga hurmat ko'rsatishdi. Va navbatni Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan «To'maris» jamoasining go'zal qizlariga berishdi. Ular «Internet, zamon va biz» mavzusidagi 1-shart bo'yicha sahna ko'rinishi namoyish etishdi. Xuddi shu shart bo'yicha «Ommaviy madaniyat» mavzusini yoritib berishda Andijon viloyati jamoasi ajoyib usulni o'ylashibdi...

– Bir muzeyga deng, turli holatdagi qizlarning eksponatlari joylashtirilibdi. Mana bu o'zini zamonaviy deb biladigan, moda ketidan quvadigan qiz eksponati, – deya ishtirokchi qizimiz gap boshlar ekan, bu holat barchani ta'sirlantirib yubordi. Bo'lmasamchi, axir o'zligida qizlarning ori, ibosida ko'rinar qalbidagi bori, deysizmi? Barakalla Festivalni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad-u vazifasida kutilganidek, bir zumda to'g'ri xulosa chiqarganingiz uchun tashakkur, qizlarjon!

Ishirokchilar ikkinchi – «savol-javob» shartida ham o'z zukkoliklarini namoyish etishdi. G'olib jamoalar nomi e'lon qilingunicha biz ham bekor turmadik. Vodiy go'zallari, Buxoro lo'barlarini suhbatga chorlaganimni ko'rib, fotomuxbimiz ham ularni suratga ola boshladi. Buni qarangi, atrofimizni o'rab olgan qizlar orasida gazetamiz muxlisalari ham talaygina ekan. Ulardan biri Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi 2-akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi Nilufar Mardonova hayajon bilan so'z boshladi:

– Orasta qiz degan ta'rifga sazovor bo'lish har birimiz uchun katta e'tirof. Orastalar orasidan tanlangani bo'lib, poytaxtga, katta festivalga kelish

esa shaxsan men uchun muhim yutuq. Ammo vazifalarimiz ham talaygina. Sahnada jizzaxlik dugonalarimiz aytishganidek, o'quvchi-qizlarning kiyinish madaniyati, salomatligi-yu erta turmushga chiqish kabi muammolarni ijobiy hal etishda biz to'garak a'zolari yetakchilik qilayotganimizdan mamnunmiz...

Qoraqalpog'istonlik tengdoshingiz Gulasal Malikova tadbirdan olgan taassurotlari bilan quyidagicha o'rtoqlashdi:

– Bugun barchamizga «Festival ishtirokchisi» degan sertifikat topshirilgan ekan, endilikda joylardagi Xotin-qizlar qo'mitalarining eng yosh vakillari sifatida yanada faolroq bo'lishimiz lozim. Hozirgina sahnada kuylagan qo'shig'imiz satrlarida aytilganidek, har yurakka o't sola olmog'i kerak...

Namanganlik shoira qiz Dilorom, dutorchi Zuhra, navoiylik Robiya, Muhabbat, Gulshan bilan dildan suhbatlashdik.

Tadbir yakunlanib, bir zumda atrof gullarga to'ldi, nazarimizda, har bir qiz g'oliba bo'ldi! Taqdirlash marosimi boshlanib, natijalar e'lon qilindi. Festivalni birinchi bo'lib boshlab bergan poytaxt jamoasi vakillari shohsupadan ham birinchi o'rinni egallashdi. Sirdaryolik qizlarga ikkinchi, navoiylik muxlisalarimizga uchinchi o'rin nasib etdi. Hay'at a'zolari ta'kidlashganiday, ushbu orasta, sarishta va har jabhada faol qizlarning har biri kelajakda muqaddas oila-yu farovon jamiyatda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlariga ishonamiz! Sizlarning ham, aziz qizlarjon, g'oliba dugonalarimizdek zukko, faol, ilg'or, shijoatli bo'lishingizga tilakdoshmiz!

Sayyora QODIROVA.

Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA



Yaqinda poytaxtimizdagi «Dedeman» mehmonxanasining anjumanlar zalida O'zbekiston Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi bilan hamkorlikda «Ommaviy axborot vositalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi – milliy axborot makonining jadal rivojlanishi kafolati» mavzusida seminar o'tkazildi.

Yurtimizda keyingi yillarda ommaviy axborot vositalari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jurnalist kadrlarni qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Tashkil etilgan tadbirda ham davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkorlikni ta'minlash, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida» gironun loyihasini sinovdan o'tkazish bo'yicha huquqiy ekspertmentning borishi, OAVning iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklari moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlashga qaratilgan davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni keng jamoatchilikka yetkazish masalalari muhokama etildi.

Seminar ishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi vakillari, markaziy va hududiy OAV jurnalistlari ishtirok etdi.

O'z muxbirimiz

**Tong yulduzi**

Har yili oktabr oyida barcha ta'lim maskanlarida ona tili va adabiyot fani oyligi o'tkazilishi an'anaga aylangan. Bu esa ona tilimizga Davlat tili maqomi berilgan sana bilan bog'liqligini yaxshi bilasiz.



## FAN OYLIGI – SO'Z BOYLIIGI

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 13-maktabda ham mazkur oylik doirasida qator tadbirlar o'tkazildi. Ayniqsa, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyiga uyushtirilgan sayohat o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, 5-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda o'g'il-qizlar ustozlaridan olgan bilimlarini namoyish etishdi. Til bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan «Ona tilim – jon-u dilim» nomli tadbirga tayyorlanish jarayonida ko'plab hikmatli so'zlar, rivoyatlar o'qib, g'azallar yod olishdi. Oylik davomida egallagan bilimlari so'z boyliklarining oshishiga xizmat qilsa, ona tilimizni sevib, yanada ardoqlashga chorlasa, ne ajab?!

*O'z muxbirimiz*



«Kamalak» bolalar tashkilotining Farg'ona shahar Kengashi tomonidan bolalar o'rtasida turli mavzularda tadbirlar o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan.

### «KAMALAK»KA A'ZOMIZ»

Kuni kecha Ahmad al Farg'oniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Kamalak»ka a'zomiz» loyihasi amalga oshirildi.

Tadбир avvalida o'quvchilar Ahmad al Farg'oniy haykali poyiga gulchambarlar qo'yishdi. A'zolikka qabul qilish marosimida shahardagi 41 ta umumta'lim maktablaridan jami 400 nafar faol o'quvchilar ishtirok etdilar. Tashkilotga yangi qabul qilingan o'quvchilarga a'zolik ko'krak nishonlari topshirildi.

San'atsevar o'g'il-qizlarning tayyorlagan badiiy chiqishlari tadbirga o'ziga zavq bag'ishladi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona viloyati

Bizga maktub yo'llabsiz...

## TIL – MILLAT KO'ZGUSI

Inson tabiat yaratgan eng buyuk mo'jizadir. Unga ulug' ne'mat – til ato etilgan. U tufayli inson orzu-niyat, maqsadlariga erishadi. Til qalbga yo'l topuvchi sehrli kalitdir. Bu kalit istasa, kimningdir ko'nglini tog'dek ko'tarishi, kimningdir yuragini tilka-pora qilishi mumkin.

Ona tilimizga Davlat tili maqomi berilganidan buyon o'tgan yillar mobaynida tilimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish bo'yicha qator ibratli ishlar amalga oshirildi.

Biz yosh avlod ona tilimizni ko'z qorachig'imizday asrashga va'da beramiz.

Shahribonu OCHILOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-IDUM 9-«A» sinf o'quvchisi



Bugun erta turib, taqvimga qararasam, oyingning 28-sanasi, dugonam Zilolaning tug'ilgan kuni ekan.

Attang, sovg'a tayyorlab qo'yman-ku, endi nima qilsam ekan-a, deya o'ylanib qoldim. Yon daftarchami, soch to'g'nog'ichmi, sotib olay desam, aksiga ortiqcha pul olib qolmagan ekanman. «Yaxshisi, sovg'ani o'z qo'lim bilan tayyorlayman. Ha, topdim, ko'chamizdagi archalardan to'kilgan yong'oqchalardan savatcha yasayman». Xayolimga kelgan bu fikrdan quvonib, zavq bilan ishga kirishdim. Savatcha ichiga gullar solib, dugonamnikiga yo'l oldim. Barcha qizlar allaqachon yig'ilib, o'yin-kulgi qilishayotgan ekan.

Men Zilolaga sovg'amni topshirdim. U esa: «Rahmat, dugonajon, juda chiroyli savatcha yasabsan, menga ham o'rgat», dedi. Men unga savatcha yasashni o'rgatdim. Ertasi kuni maktabda u menga ham mitti savatcha uzatdi. Tug'ilgan kun bahona biz eng yaxshi sovg'a – qo'l mehnati bilan o'zimiz yasagan buyumlar ekanini, hunar o'rganmoq insonga hamisha naf keltirishini tushunib oldik.

E'zoza MUHAMEDOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 193-maktabning 6-«D» sinf o'quvchisi



(Hayotiy voqea)



### Bir maktabdan qo'sh maktub

Men sinfimiz qizlarining sardoriman. Ularning maktab formasida kelishlari, davomati va ozodaligini nazorat qilaman. Har haftada o'tkaziladigan «Qizlar majlisi»da ularning olgan baholari-yu orastaligini

## AHIL DUGONALARMIZ

muhokama qilamiz. Darsdan keyin sinf xonamizdagi gullarga suv quyib, parvarishlaymiz, xonani tozalab, ertangi darslarga hozirlaymiz. Bilasizmi, sardor bo'lishning ham o'ziga yarasha mas'uliyati bor ekan. Chunki har bir qizning fe'l-atvori ham har xil-da. Men ularning qalbiga yo'l topib, barchasi bilan ahil-inoq bo'lishga intilaman.

Sarvinoz SAMANDAROVA

Men «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini maroq bilan o'qib boraman. Ayniqsa, «Ijod zavqi», «Rasmlar ko'rgazmasi», «Keling, ertak o'qiy-miz!» singari ruknlar juda yoqadi. «Yozuvchilar bolalarga» rukni orqali chop etilayotgan hikoyalar menda katta qiziqish

## GAZETANI O'QIB, ZAVQLANAMAN

uyg'otdi. «Ingliz tilini o'rganamiz!» sahifasi orqali bu tilni yanada puxtaroq o'rganishga kirishdim. Sevimli gazetamning rang-barang sahifalaridan zavq olib, men ham turli mavzularda rasmlar chizishni boshlab yubordim. Kelgusida chizgan rasmlarimdan tahririyatga ham yuborish niyatim bor.

Munisa QODIROVA

Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchilari

### «TONG YULDUZI»NING O'RNI BOR

Men ona tilimizni yaxshi bilishimizda, unda sof va ravon so'zlashishimizda sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ning ham alohida o'rni borligini ta'kidlagim keladi. Masalan, gazetada e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida ishtirok etish maqsadida talaygina kitoblari o'qib, so'z boyligim va bilimimni oshirdim. «Bizga maktub yo'llabsiz...» rukni ostida berilayotgan tengdoshlarimning maqola, xat va xabarlarini o'qib, men ham qo'limga qalam oldim. Gazetadagi she'rlerden ilhomlanib, ijod qilishga kirishdim. Ona tili o'qituvchimiz bejizga har yili bizni sevimli nashrimizga obuna bo'lishga undamas ekanlar-da!..

Otabek BAKIROV,  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-maktabning 6-sinf o'quvchisi



**«Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand bor. Farzand bor ekan, inson doimo ezgu niyatlar bilan yashaydi».**

Islom KARIMOV

## IKKI BULOQ KO'Z OCHDI

Darhaqiqat, bolajon xalqimiz farzandim deb yashaydi. Baxti, iqbolini ular kamolida ko'radi.

Ana shunday ezgu niyatlar bilan yashayotgan onalarimizdan biri ikki nafar qizi bilan tahririyatimizga kirib keldi. Uning aytishicha, to'ng'ich qizi Madina «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida 2-o'rinni egallabdi. Bu kitobxon qizimizning g'olib bo'lganidan, qolaversa, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularni rag'batlantirish maqsadida o'tkazilayotgan bunday tanlovlarimizning ijobiy samara berayotganidan behad quvondik.

– Har bir insonning umri davomida o'z tafakkuri, ma'naviy olami, fikr doirasi, dunyoqarashini shakllantirib borishida mutolaaning o'rni beqiyos, – deydi Madina kitobning inson hayotidagi o'rni haqida gapirar ekan. – Kitobni ma'rifat ofobi, desak, uning har bir satrini nur-u ziyoga qiyoslaymiz. Kitob bizni kamolotga yetaklaydi. Ko'p kitob o'qigan inson atrofida-

gilar, do'stlari orasida hurmat topadi. Chunki u bizga teran fikrlashni, avval o'ylab, keyin so'zlashni o'rgatadi. Kitob mutolaa qilish asnosida uning qadri, mohiyatini anglar ekanman, u beminnat maslahatgo'y, muvaffaqiyatlar sari chorlovchi kuch, ezgu ishlarda ko'makchi ekanligiga amin bo'lib boryapman...

Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi 65-maktabning 8-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan Madinaxonning teran fikrlarini tinglar ekanmiz, u bilan yaqinroq tanishgimiz, qiziqish va intilishlari, orzu-niyatlari haqida bilgimiz keldi. Serqirra ijodkor qizimiz darsdan bo'sh vaqtlarida tumandagi musiqa va san'at maktabiga qatnab, ustozlaridan dutor chalish, raqs tushish kabi nafis san'at sirlarini qunt bilan o'rganayotgan ekan. She'riy mashqlari

ko'plab gazeta va jurnallarda, shuningdek, yangi-yo'llik yosh ijodkorlar she'rilaridan jamlangan «Orzu qanotida» nomli to'plamdan joy olibdi.



Uning «Kuz» nomli she'rini siz gazetaxonlarga ham ilindik.

### KUZ

Tabiat bir musavvir,  
Ilhom berar ranglari.  
Kuz ochar tarovatin,  
Ko'rkiga ko'rk barglari.

Qut yog'dir dalamga,  
Fayz berar oltin fasl.  
Har bir tushgan zarra, nur,  
Der: «Kuz – eng go'zal fasl».

Feruzarang samovot,  
Borliq unga payvasta.  
Zargar kuzning dafatarin,  
Ochadi asta-asta.

Sog'ingandim, ko'z mushtiq,  
Keldingmi, oltin kuzim?!  
Yo'llar oltin poydoz,  
O'rgilay sendan o'zim.

Madina NE'MATOVA



Maftuna NE'MATOVA  
chizgan rasm

Tanishish navbati Madinaning singlisi Maftunaxonga kelganda, u ko'zimizga juda issiq ko'rindi. Ha, ha, esladik, uni «Toshkent» telekanali orqali namoyish etiladigan «Sarguzashtlar olami» ko'rsatuvida ko'rgan ekanmiz. Qizchanning qo'lidagi bir dasta rasmlarni ko'rib, uning tasviriy san'atga mehri bo'lakcha ekanligini payqash mushkul emas edi. Onasi Gulchehra opaga havas qilib, tasviriy san'at yo'lini tanlagan Maftunaxon ham darsdan bo'sh vaqtlarida musiqa va san'at maktabiga qatnab, ustozlari Siviliya Serverovnadan natyurmort, peyzaj, portret yo'nalishida rasm chizishdan saboq olayotgan ekan. 65-maktabning 6-«B» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga, tuman miqyosida o'tkazilayotgan ko'plab tanlovlarda qatnashib, yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan Maftunaxon mohir musavvir bo'lishni orzulaydi.

Uning chizgan rasmlari bizga ma'qul bo'ldi. «Oltin kuz saxovati», «O'lkamda kuz» nomli rasmlari bilan gazetamiz muqovasini bezatdik.

Nazarimizda, yurtimiz bag'rida yana ikki musaffo buloq ko'z ochdi. Ularning hali to'lib-toshib, mavjlanib oqishlari bor.

Feruza JALILOVA



## SIZ HAM DO'STLASHING

Siz suratda ko'rib turgan bu yoqimtoy qiz Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Nigina Narzullayevadir. U bu yil birinchilardan bo'lib sevimli nashri «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldi. Darsdan bo'sh vaqtlarida u gazetani maroq bilan o'qib chiqadi. O'zi ham she'rlar yozadi, rasmlar chizadi.



Sh. MUSAKOVA olgan surat

Darvoqe, yaqinda maktabda o'tkazilgan rasmlar, insholar tanlovida Nigina ham ishtirok etdi va birinchi o'rin sohibasi bo'ldi. Uning bu quvonchiga dugonalari – Marjona Tuyg'unova, Sharofat Negova ham sherik bo'lishdi va undan ibrat olib, kelgusida nafaqat maktab, balki tuman, viloyat va respublika miqyosidagi tanlovlarda ham ishtirok etishga qaror qilishdi. Intiluvchan shogirdlarining bu qaroridan o'qituvchilari ham sevinishdi.

– Ustozlarimiz bizga bilim beribgina qolmay, bo'sh vaqtlarimizda nimalar bilan shug'ullanishimizga ham qiziqishadi. Ayniqsa, til va adabiyot fani o'qituvchisi Ra'no opa Sharipova, fransuz tili ustozimiz Nodira opa Boboqulova bizga kitob, gazeta va jurnallardan ko'proq mutolaa qilishimiz zarurligini hamisha eslatib turadilar. Ana shunday g'amxo'r, bilimdon ustozlardan ta'lim-tarbiya olayotganimdan xursandman, – deydi Nigina ko'zlari quvonchga to'lib. – Barcha orzu-istaklarimning amalga oshishida, albatta, ustozlarim o'giti, qolaversa, «Tong yulduzi» gazetasidek do'stimning o'rni beqiyos bo'lishiga ishonaman.

Harakatchan va izlanuvchan tengdoshingiz Nigina kabi siz ham «Tong yulduzi» gazetasini bilan do'stlashishingizni, uni muntazam o'qib borishingizni juda-juda istaymiz.

OLMOS

Oktabr oyining to'rtinchi dushanbasi Xalqaro maktab kutubxonalari kuni sifatida nishonlanadi.

# KITOB BOR UYDA QUYOSH BOR

**Aziz o'quvchilar, maktabingizdagi kutubxonaga a'zomisiz? Albatta, deysizmi, juda yaxshi. Chunki kitob o'qigan bolalar kelajakda bilimli, zukko, aqlli bo'lishadi. Orangizda hozir texnika asrida kitobga ehtiyoj yo'q, deydiqanlar ham topiladi. Ammo ana shu kompyuterlar-u robotlarni yaratishda ham aynan kitobning roli katta ekanligini unutmang.**

**Xalqaro maktab kutubxonalari kuni arafasida biz bugungi o'quvchilarning kitob bilan qay darajada do'st tutinishgani bilan qiziqdik:**

– Viloyat axborot-resurs markazi Samarqand shahridagi tarixiy binolarning birida joylashgan bo'lib, 1911-yildan buyon kutubxona sifatida xalqqa xizmat qilib kelmoqda. Markazimiz tomonidan bolajonlarni bilimli, zukko qilib voyaga yetkazishga hissa qo'shish maqsadida qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, viloyatimiz umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Kitob-sevarlar» ko'rik-tanlovi, «Kitobxon maktab» ko'rik-tanloving viloyat bosqichi o'tkazildi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi 42-umumta'lim maktabi kutubxonachisi Dilnoza Xoliqulova ko'rik-tanloving Respublika bosqichida qatnashishga muyassar bo'ldi.

Viloyatdagi axborot-resurs markazlari va ta'lim muassasalari kutubxonalari fondini boyitish maqsadida mahallalar, fermer xo'jaliklari, bitiruvchi sinf o'quvchilari hamda tashkilot rahbarlari orasida targ'ibot ishlari olib borilmoqda. «Maktab – kutubxona – oila va jamoat tashkilotlari» xayriya marafoni, «Bir farzandga uch kitob» aksiyalari davom etmoqda.

Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tizimiga qarashli viloyat, shahar, tuman axborot-resurs markazlari va maktab kutubxonalarning kitob fondi bugungi kunda viloyat axborot-resurs markazida 150 816 nusxani, foydalanuvchilar soni 10 710 nafarni; 16 ta tuman, shahar axborot-resurs markazlarida kitob fondi 125 428 nusxani, foydalanuvchilar soni 68 343 nafarni; 120 ta maktab axborot-resurs markazlarida kitob fondi 209 712 nusxani, foydalanuvchilar soni 79 819 nafarni; 1098 ta maktab kutubxonalarning kitob fondi 674 602 nusxani, foydalanuvchilar soni 381 609 nafarni tashkil etadi.

Yuqoridagi amaliy ishlarimiz samarasi o'laroq har bir o'quvchi qo'lga kitob olib, mutolaaga kirishsa, ajabmas.

Yusuf aka  
MUHAMMADIYEV,  
Samarqand viloyati  
xalq ta'limi  
tasarrufidagi viloyat  
axborot-resurs  
markazi direktori:



Muhabbat opa  
AZIZOVA, Namangan  
viloyati, Kosonsoy  
tumanidagi  
24-umumta'lim maktabi  
kutubxonachisi:

– Maktabimizda kitobxon o'quvchilar talaygina. Kutubxonamiz fondini boyitish maqsadida har yili bilim maskanimizda «Maktab – kutubxona – oila va jamoat tashkilotlari» xayriya tadbiri o'tkazamiz. Tadbir doirasida o'quvchilar, ustozlar, ota-onalar, homiy tashkilotlar tomonidan badiiy, ilmiy ommabop, ensiklopedik janrlardagi kitoblar kutubxonamizga sovg'a qilinadi. Ana shunday tadbirlarimizdan birida tuman prokuratura xodimlari tomonidan 95 nomdagi 1200 dan ziyod badiiy kitoblar o'quvchilarimizga tortiq qilindi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida «Kitobim – oftobim», «Eng bilag'on o'quvchi», «Eng faol kitobxon» ko'rik-tanlovlari o'tkazib turamiz. Har yili oktabr oyining so'nggi dushanbasida Xalqaro maktab kutubxonalari kuniga bag'ishlab «Kitobxonlik kitobsevarlikdan boshlanadi» mavzusida davra suhbatlari o'tkazamiz. Shu tariqa maktabimizdagi har bir o'quvchining kitob bilan oshno tutinishida o'z hissamizni qo'shyapmiz.

Mana, bolajonlar, viloyatlardagi tengdoshlaringizning qanchalik kitobxon ekanligini bilib oldingiz. Siz-chi, maktabdagi darslardan, mashg'ulotlardan ortib, nechta badiiy kitob o'qingiz? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring. Zero, kitob bor uyda Quyosh nur sochadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA



## Who knows more?

– My father and I know everthing in the world said a small boy to his friend.  
– All right said his friend. Where's Africa?  
– It was a difficult question but the little boy answered quickly.  
– That is one of the questions my father knows.

## Free lighting

Teacher: – What's difference between lighting and electricity? Schoolgirl:  
– Well, miss. You don't have to pay for lighting.

## Dialogue

Teacher: – What do we get from sheep?  
Boy: – Wool.  
T: – And what do we make from wool?  
B: – I don't know.  
T: – Well, what's is your coat made of?  
B: – My coat was made from father's old coat.



Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## CARROT TWINS

Can you find two carrots that look exactly alike?



## TESTS

1. I...my key. I can't enter my flat now.  
A) am losing;  
B) had lost;  
C) have lost;  
D) lost.
2. The British are ... to be cold and reserved.  
A) insisted;  
B) persisted;  
C) coosidred;  
D) acted.
3. ....you ever an answering machine?  
A) have/see;  
B) has/seen;  
C) have/seen;  
D) do/seen.
4. Read the rule.... writing the exercise.  
A) after;  
B) before;  
C) by;  
D) during.

Baxtixon ISROILOVA tayyorladi



## ZARGARIMSAN, GAVHARIMSAN, SO'ZIMSAN...

*Zargarimsan, gavharimsan, so'zimsan,  
Oq-qorani tanituvchi ko'zimsan,  
Pok tuprog'im, rizq-u ro'zim, tuzimsan,  
O'zbek tilim, ona tilim, o'z tilim...*

Zavqdan jo'shib, ona tilimizni ulug'lab she'r aytayotgan bu o'quvchilar poytaxtimizning Hamza tumanidagi 227-umumta'lim maktabida tahsil olishadi. Mazkur bilim maskanida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan «Ona tilim – jon-u dilim» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

– «Ona tili va adabiyot, o'zbek tili fanlari oyligi»ni mazmunli o'tkazish maqsadida bir necha tadbirlar rejasini tuzib chiqdik, – deydi shu maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnoza Haytanova. – O'quvchilarning mazkur fanlar bo'yicha bilim darajalarini aniqlash maqsadida 5–9-sinflarda test sinovlari o'tkazildi. «Ochiq darslar haftaligi» doirasida



yuqori sinflarda ochiq darslar o'tkazildi. O'quvchilarga tilimizning qadimiyligi, serqirraligini uqitirish, ular qalbida ona tilimizga hurmat va ehtirom tuyg'ularini

uyg'otish maqsadida Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyiga, «Qatag'on qurbonlar xotirasi» muzeyiga, G'afur G'ulom uy muzeyiga sayohatlar uyushtirildi.

Ona tilimizga bag'ishlangan mazkur tadbirda o'quvchilar Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad

Bobur, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy kabi buyuk siymolarning yozgan asarlaridan parchalar o'qishdi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asari asosida tayyorlangan sahna ko'rinishi barchada katta taassurot qoldirdi.

Bu tadbir orqali o'quvchilarimiz ona tilimizning qadri yanada teranroq anglagan bo'lsalar, ajabmas.

**Klara AZIMOVA,**

*Toshkentdagi 227-maktab o'qituvchisi*



## ESMOQDA ERK SHAMOLI

*Esmoqda erk shamoli,  
Yurtimning osmonida.  
Qaldirg'och in qurmoqda,  
Bobomning ayvonida.*

*Osmonimiz musaffo,  
Xavf-u xatardan xoli.  
Kundan kun ochar chiroy,  
Diyorimning jamoli.*

*Obod bo'lsin har go'sha,  
Gullasin har yog'imiz.  
Hilpirab tursin mudom,  
Boshda hur bayrog'imiz.*

**Nazirjon TOSHTEMIROV,**  
*Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
4-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi*

## O'ZBEGIMNING QISHLOQLARI

*Obod, ko'rkam, dilga yaqin,  
Diyorimning qishloqlari.  
Nomlaridan chaqnar chaqin,  
O'zbekimning qishloqlari.*

*Tuprog'i zar zamin uning,  
Maysa qir-u o'tloqlari.  
Yurtimizning yuragidir,  
O'zbekimning qishloqlari.*

*Chashmasida kumush jilva,  
Menga aziz toshloqlari.  
Odamlari sodda, dilkash,  
O'zbekimning qishloqlari.*

*Qadrlidir har go'shasi,  
Shifobaxshdir buloqlari.  
Chinorlari yashar ming yil,  
O'zbekimning qishloqlari.*

**Malikabonu TOLIBOYEVA,**  
*SamDU qoshidagi 1-akademik litseyning  
1-bosqich o'quvchisi*



*Ne-ne buyuklarga Vatansan o'zing,  
Ne-ne insonlarni daho qilgansan.  
Sir o'zing, Buxorom, sinoat o'zing,  
Dardingga malhamni o'zing surgansan.*

*Yovlarga boshingni egmading aslo,  
Fikrat bo'ronida omon qolgansan.  
Poyingga bosh qo'ygan ne-ne insonlar,  
Hamisha xalqingdan madad olgansan.*

*Ulug'lar sen sabab ulug' bo'ldilar,  
Ulug'lar sababli sharafsan, illo.  
Bugun Istiqloldan ko'ksing sarbaland,  
Ey onam, boqiy va ko'hna Buxoro!*

**Go'zal SALOHIDDINOVA,**  
*Buxoro shahridagi 35-umumta'lim  
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi*

## O'G'RIGINA MOMIQVOY

Tush payti. Buvim urchiq yigirish bilan band. Yangam chaqaloq bilan ovora. Ko'chadan o'tib borayotgan Muborak xola birdan to'xtadi-yu, biz tomonga vajohat bilan kela boshladi. Akam yumshoq ko'rpacha ustida oftobda toblanib yotgan Momiqvoyga qaradi. Momiqvoy esa akamning qo'lidagi ovqatga umidvor mo'ltiradi.

Akam kosadagi ovqatini stol ustiga qo'yishga ulgurmay, Muborak xola kirib keldi va labi-labiga tegmay javray ketdi.

– Buningizni yo'qotasizmi, yo'qmi?

– Ha, hamsoya, xush ko'rdik. Keling, – dedi yigirayotgan ipini bir chetga qo'ygan buvim.

– Kechagina yog' kuydirgan edim. Dugonalarim bilan «gap»im bor edi. 2 kg. go'sht olib kelgandim. Osh va sho'rva qilmoqchi edim. Bu savilning ishi bo'lsa kerak, yog'ni ag'darib, go'shtni yeb, suyagini qoldiribdi, – dedi Muborak xola. –

Hazm bo'lmagur, – deya qo'shib qo'ydi.

– Xola, tilsiz jonivor, urgan bilan odam bo'lmaydi. Biz ziyonni, albatta, qoplaymiz, – uzr so'rab qo'ydi akam.

Momiqvoyning shunday odati bor edi: tunlari kimningdir qaymog'ini, kimningdir go'shtini yeb kelardi. Uyda ham og'zi tinmasdi, juda to'ymas mushuk edi. Shuncha yesa ham semirish o'rimga, kundan kunga qovurg'alari sanalib borardi. Tunov kungisi judayam oshib tushdi.

Qo'shni otaxon holva, mayiz, bo'g'irsoqni ro'molga tugib, tokka ilib qo'ygan ekan. Ertaga poytaxtdan nabiralirim kelsa beraman, deya. Momiqvoy uni ham tokdan tushirib, paqqos uribdi. Ro'molini bo'lsa bobonng yoniga tashlab ketibdi. Akam bu ishni Momiqvoy qilganini bilib, bobodan uzr so'radilar. Momiqvoy esa akamning oyoqlariga tinmay suykalardi. Akam urib urolmas, qo'lidan hech narsa kelmasdi...

Akam chorshanba kuni viloyat markazidagi mol bozoriga otandilar. Momiqvoyni xaltaga soldilar-da, mashinaga o'tirib ketdilar. Yo'l-yo'lakay mushukning dumini bosib bordilar. Agar shunday qilinmasa, mushuk yashagan joyini dumi bilan kuzatib ketib, yana qaytib keladi, deb o'ylagan. Akam yo'lda mushukka gapirib ketibdilar: «Men bergan tuzimga roziman. Sen ham qilgan xizmatingga rozi bo'l. Bundan keyin o'g'irlik qilmay, o'z kuningni ko'r. Izimdan ergashib, boshqa biz tomonlarga qaytib borma». Og'zi bog'liq xaltadan mungli tovush eshitilibdi. Akam qattiq siqildi-yu, lekin sezdirmaslikka harakat qildi. Momiqvoy aslida yaxshi mushuk edi, uyga kelgan yosh bolalarni rosa o'ynatardi. Aqlli edi, lekin aqlini to'g'irlikka ishlatmadi.

**Adiba MEYLIYEVA,**  
*Toshkent davlat texnika  
universiteti qoshidagi Chilonzor  
akademik litseyi o'quvchisi*



## O'SMIRLARIMIZ NIMCHORAK FINALDA

Birlashgan Arab Amirliklarida 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida futbol bo'yicha XV jahon chempionati o'zining eng qizg'in pallasiga kirib bormoqda. Ayni paytga kelib, guruh bosqichi o'yinlari yakunlanib, nimchorak finalga yo'l olgan barcha terma jamoalar nomi ma'lum bo'ldi. Quvonarlisi, «C» guruhida bahslarga kirishgan O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi ham 7 ochko jamg'argan holda nimchorak final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

O'smirlarimiz guruhdagi dastlabki uchrashuvni KONKAKAF mintaqasi vakili panamalik o'smirlarga qarshi o'tkazib, yakunda 2:0 hisobida g'alaba qozonganligidan xabaringiz bor. Ikkinchi tur o'yinini esa yosh charm to'p ustalarimiz guruhdagi eng kuchli raqib Marokash o'smirlar terma jamoasiga qarshi o'tkazdi. Mazkur uchrashuv avvalida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida ham jamoamiz bosh murabbiyi Dilshod Nuraliyev afrikalik yosh futbolchilarning juda kuchli ekanligini, oldindagi bahs shogirdlari uchun oson kechmasligini alohida ta'kidlagan edi. Murabbiyning so'zlariga to'g'ri bo'lib chiqdi. O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi marokashliklar bilan bo'lgan bahsda jiddiy qarshilikka duch keldi. Raqiblarimizning uyushtirgan har bir hujumi darvozamiz oldida

xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirdi. Yakunda har ikki terma jamoa murosasini tanlab, guruh o'yinlari yakunlanmay turib, 4 ochko bilan nimchorak final bosqichiga yo'l olishdi.

Guruhdagi Xorvatiya o'smirlariga qarshi so'nggi uchrashuv kvartet

daqiqalardan o'pni nazorat qilishga, kezi kelganda, tezkor qarshi hujum uyushtirishga intilishdi. Ana shunday vaziyatlarning birida o'ng qanotdan raqib jarima maydoniga yorib kirayotgan Izzatilla Abdullayev xorvatiyalik futbolchi tomonidan

uchun imkon bermaslikka intildi. Afsuski, o'yinning 28-daqiqasida yevropaliklar tezkor hujum uyushtirib, hisobni tenglashtirishga muvaffaq bo'lishdi. Alen Xalilovich jarima maydonimiz yaqinida turgan bir necha himoyachilarimizni ustalik bilan ortda qoldirib, Sarvar Karimov qo'riqlayotgan darvozani ishg'ol qildi.

Ikkinchi bo'limni ham Dilshod Nuraliyev shogirdlari tezkor hujumlar bilan boshlashdi. Faqat o'yinning 80-daqiqasiga kelibgina bu urinishlar samara berdi. Jamoamizning yetakchi o'yinchisi Jamshid Boltaboyev raqib jarima maydoni chizig'i yonida o'zining tezkor aldanchi harakatlari bilan xorvatiyalik himoyachilarni chalg'itib, Mari qo'riqlayotgan darvozaga shu qadar aniq zarba berdiki, raqib darvozaboni bu zarba qarshisida o'jiz qoldi va yakunda futbolchilarimiz juda muhim bo'lgan g'alabani qo'lga kiritishdi.

Marokash o'smirlar terma jamoasi panamaliklarni 4:2 hisobida mag'lubiyatga uchratib, to'plar nisbatiga ko'ra «C» guruhida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi esa guruhda ikkinchi o'rinni band etib, nimchorak finalda Gonduras terma jamoasiga qarshi bahs olib boradigan bo'ldi. Yosh charm to'p ustalarimizga mazkur bahsda omad tilab qolamiz.

Sa'dullo TURSINOV



g'olibini aniqlab berishi bois, Dilshod Nuraliyev shogirdlari bu bahsga ham jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Yevropaliklarni tezkor o'yin namoyish etishi, xorvatlar tarkibida ko'plab yosh iqtidor egalarining yig'ilgani bu uchrashuvga qiziqishni yanada orttirdi.

Uchrashuv Dilshod Nuraliyev shogirdlari uchun juda yaxshi boshlandi. Futbolchilarimiz dastlabki

qo'pollik bilan to'xtatib qolindi. Jarima to'pini qoyilmaqom bajarishi bilan ancha tanilib qolgan Dostonbek Hamdamov standart vaziyatdan to'pni raqib darvozasi tomon shu qadar xavfli yo'naltirdiki, xorvatiyalik himoyachi Galeta Kar bu to'pni kutilmagan o'z darvozasiga kiritib qo'ydi.

Vakillarimiz hisobda oldinga chiqib olgach, raqibga to'pni nazorat qilish

## SHAXMATCHILARIMIZNING ULKAN G'ALABASI



Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) prezidenti Kirsan Ilyumjinov sovrini uchun o'tkazilgan Markaziy Osiyo Kubogida O'zbekiston jamoasi qatorasiga uchinchi bor bosh sovrinni qo'lga kiritdi.

Mamlakatimiz intellektuallari bunga qadar Toshkent (O'zbekiston) va Issiqko'l (Qirg'iziston) shaharlarida o'tkazilgan Markaziy Osiyo Kubogi bahslarida umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egallashgan edi.

Tojikistonda bo'lib o'tgan navbatdagi musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Markaziy Osiyoda yetakchi ekanliklarini amalda yana bir karra isbotlashdi. Umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni Qozog'iston terma jamoasi band etdi.

Dushanbe shahrida o'tkazilgan musobaqada jami 11 nafar sportchimiz Vatanimiz sharafiga himoya qildilar.

Erkaklar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada samarqandlik iqtidorli shaxmatchimiz Jahongir Vohidov 9 partiyaning birotasida mag'lubiyatga uchradi va 7 ochko jamg'argan holda birinchi o'rinni egalladi. Umidli sportchimiz musobaqa davomida qozog'istonlik grossmeysterlar – Murtas Kajgaleyev, Pavel Kotsur, Pyotr Kostenko, tojikistonlik Andrey Onishenko va Alisher Karimovni mot qildi. Yana to'rt partiyada o'zbekistonlik xalqaro grossmeyster Aleksey Barsov, qozog'istonlik Kirill Kuderinov va mezbon shaxmatchi Faruh Amonatov bilan durang o'ynadi.

20 yoshgacha qizlar musobaqasida O'zbekiston chempioni Sarvinoz Qurbonboyeva oltin medalga sazovor bo'ldi.

Bundan tashqari, FIDE ustasi Temur Igonin, shuningdek, xalqaro grossmeyster Nafisa Mo'minova va Irina Gevorgyan ham sovrindorlar safidan o'rin egallashdi.

## MUSOBAQA YAKUNLANDI

Kuni kecha Andijon viloyatidagi ixtisoslashtirilgan Olimpiya xazinalari bolalar va o'smirlar ot sporti maktabida vodiy birinchiligi bo'lib o'tdi. O'zbekiston ot sporti federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan musobaqada Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan tashrif buyurgan 28 jamoa, 70 dan ziyod o'g'il-qizlar ishtirok etdi. Musobaqadan ko'zlangan asosiy maqsad, yoshlar o'rtasida sog'lom tur-

mush tarzini targ'ib etish, ot sportini ommalashtirishdan iborat.

Musobaqa yakunida Andijon viloyat sportchilari birinchi, namanganliklari ikkinchi, Farg'ona viloyati vakillari esa uchinchi o'rinni egalladi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

HUSANZODA



## NUKUSLIK QIZLAR G'OLIB

Buxoroda 1997–1998-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida basketbol bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilari o'rtasida tashkil etilgan ushbu musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Andijon, Namangan, Jizzax va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahri jamoalari o'zaro bahs olib bordi.

Musobaqa finalida nukuslik qizlar jamoasi Toshkent shahri vakillarini 64:24 hisobida mag'lub etib, chempionatning oltin medalini qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rin buxorolik qizlarga nasib etdi.

Shoh MUHAMMAD





Bu aqshal!

# JONIVORLAR OLAMI

**Yong'oqni yaxshi ko'radigan jonivor qaysi, degan savolimizga o'ylab ham o'tirmay, olmaxon, deya javob berishingiz tayin. Orangizda shoxdan shoxga, daraxtdan daraxtga «uchib» o'tadigan bu yoqimtoy, chiroyli va momiqqina jonivorni yaxshi ko'rmaydigan, uning harakatlaridan zavqlanmaydiganlar topilmasa kerak?!**

OLMAXON – kemiruvchilar turkumiga mansub jonivor. Shuningdek, u sut emizuvchilarning bir turi hisoblanadi. Bu jonivorni Avstraliyadan tashqari yer sharining istalgan yerida uchratishingiz mumkin. Tanasining uzunligi 31 santimetr, dumining uzunligi esa 30 santimetrgacha bo'lishi mumkin. Olmaxonning har xil og'irlikdagi turlari mavjud. Uning mo'ynasi yumshoq va mayingina bo'lishini bilasiz-a? Lekin, ba'zi turlarining mo'ynasi qattiq va sanchiladigan ham bo'lar ekan. Rangi esa, asosan, sarg'ish va kulrang bo'ladi. Bu jonivor o'rmonlardagi daraxt kovaklarida yoki o'to'lanlardan to'qilgan inlarda yashaydi, turli meva, urug' va hasharotlar bilan

oziqlanadi. Tishlari juda o'tkir bo'lib, o'sishdan sira to'xtamas ekan. Qishga g'amlagan yong'oqlarini qayerga berkitganini ba'zan unutib qo'yadi. Olimlarning fikricha, xotirasi past hisoblangan olmaxonlar shu tariqa yangi yong'oq daraxtlarining o'sib chiqishiga sababchi bo'lar ekan.

Bizga ularning o'ttizga yaqin turlari ma'lum. Sichqonsimon olmaxon, bog' va o'rmon olmaxoni, yong'oqzor olmaxoni kabi turlari shular jumlasidandir. Qishda uyquga ketadigan bu hayvon yilda bir marta – may oyida uchradan oltitagacha bolalaydi. Munchoq ko'zli olmaxon bolasi juda yoqimtoy bo'ladi.

ZUBAYDA



## ANA SHUNAQA!

Dunyoda pul to'lab, tahsil olinadigan maktablar ham borligini bilasizmi? Xorijda chop etiladigan «Forbes» jurnali ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi xususiy maktablar orasida narxining qimmatligi bilan Shveysariya maktablari ajralib turarkan. Farzandlari shu maskanda tahsil oladigan ota-onalar bu yerdagi ta'lim narxiga arziydi, deb hisoblashadi. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu maktabda berilgan bilim darajasi, muloqot doirasi – bitiruvchilar uchun ko'plab oliy o'quv yurtlarining eshiklarini ochib beradi.

Shunday ta'lim dargohlaridan biri mamlakatdagi «Le Rosey» maktabi bo'lib, u «Qirollar maktabi» deb nom olgan. Dunyodagi eng qimmat va nufuzli bu bilim dargohi ikki o'quv yiliga bo'linadi – qishki va yozgi. Bahor, yoz va kuz oylarida 28 gektar maydonni egallagan O'rta asrda qad rostlagan qasr, tennis kortlari, basseyn, sauna o'quvchilar ixtiyorida bo'ladi. Sarguzashtni yoqtiradiganlar uchun esa «Yaxta-klub» xizmati yo'lga qo'yilgan. Qasr atrofini tomosha qilishni istaganlar o'txonadagi otlarda bemaol sayr qilishlari mumkin.

Yevropadagi eng yaxshi oshpaz ham shu maktab oshxonasida ishlaydi. Uning turli taom va shirinliklarini tatib ko'rgan o'quvchilar oshxonaning atrofidan keta olishmaydi. Qishda bolalar alohida binoda yashashadi. U yerdan tog' chang'i yo'ligacha besh daqiqagina yuriladi, xolos. Bu esa o'quvchilarning qish faslini ham o'z gacha taassurotlarda o'tkazishlaridan dalolat beradi. Ana shunaqa!

Internet materiallari asosida  
Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi



## MAMONT QOLDIQLARI TOPILDI

*Aziz bolajonlar! Siz yurtimiz hududidan ilk bora mamont qoldiqlari topilgani, shunday haybatli hayponning bizning hududlarda ham hayot kechirgani haqidagi xabarni eshitdingizmi? Hali xabar topmagan bo'lsangiz, ushbu ma'lumotlarimizga diqqat qiling!*

tepa qismi esa 25–30 sm.ni tashkil etadi. Qum-loyli cho'kindilar qatlamidan mamont bosh skeletining peshana qismi topilgan. Ayni paytda O'zbekiston Milliy universiteti olimlari guruh tadbqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mamontning balandligi 5 metr, spiral ko'rinishidagi dandon suyaklari 4 metr, og'irligi 10–12 tonna ekanligi taxmin qilinmoqda.

Paleontologlar qoldiqlarni ko'zdan kechirib, bu jonivorning 1 million 200–1 million 800 yoshli yirik turdagi mamont ekanligini aniqlashdi. Bu g'aroyib topilmalar – mamont tishlari va dandon

suyagi keyingi yil boshida Toshkent Geologiya muzeyida ko'rgazmaga qo'yilishi rejalashtirilmoqda. Paleontologlar uning to'liq skeletini tiklashga urinishyapti. Mamont tanasining qolgan qismi soy o'zani yaqinidagi jarlik tagida bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda.

Mutaxassislar fikricha, mamontlar tabiatda ro'y bergan iqlim o'zgarishlari natijasida bundan o'n ikki ming yil avval qirilib ketgan. Uning qoldiqlarini topish va ilmiy jihatdan o'rganish sayyoramizdagi jo'g'rofiy, geologik, ekologik hodatlarni tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nigora JO'RAYEVA

Bu noyob topilma Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi Ovjaszoy qishlog'ida topildi. Paleontologlarning ma'lum qilishicha, shu yil bahor oyida kelgan kuchli sel oqimi natijasida mamont tishlari yer yuzasiga chiqib qolgan. Jarlikdagi allyuviy (suv bilan oqib tushib, biror yerda to'plangan tog' jinslari) qatlami ochilganda, mamontning ikki dandon suyagi va bosh suyagining yuqori qismi tishlari bilan birga topilgan. Chap dandon tishning saqlanib qolgan qismining uzunligi 2 metr-u 78 sm.ni, pastki qism diametri 7 sm.ni, o'rta va

## QIZIQARLI MASALALAR

1. Uch nafar baliqchi daryoga baliq otagani borishdi. Ular ja'mi 64 dona baliq tutishdi. Birinchi baliqchi tutgan baliqlar soni ikkinchisidan 12 ta kam, uchinchi baliqchidan esa 2 barobar kam. Savol: Kim qancha baliq tutgan?



2. Uch xonali son 7 raqami bilan boshlanadi. Berilgan sonda 7 raqamini oxiriga qo'yish bilan berilgan son 117 ga kamayadi. Hosil bo'lgan sonni toping.

MAFTUNA

## TOPISHMOQ – SHE'R

Asta-asta silkinar,  
Qizil gulning yaprog'i.  
Guldan gulga berkinar,  
Qaysi gulning o'trog'i?

Anvar MIRZAZODA,  
Zangiota tumani

8

28-oktabr 2013

Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA  
Rassom  
Feruz MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin ORIPOV  
Musahhif  
Nargiza ABDULLAYEVA

Manziliimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 46871  
Buyurtma N: J 8371

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarasli bo'lmagan xalqaro sayriya Jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.